Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 2 (2026) · “Milliy statistika tizimida yangi bosqich: barqaror rivojlanish maqsadlari, xalqaro standartlar va zamonaviy tende...

AHOLI TURMISH DARAJASINING STATISTIK KO‘RSATKICHLARI TAHLILI

SADULLAYEVA MARIFAT SHONAZAR QIZI
Ma’mun universiteti’’ NTM Iqtisodiyot fakulteti
IQT-24/5 guruh talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada aholi turmush darajasining o‘zgarishini baholashda qo‘llaniladigan statistik ko‘rsatkichlar tizimi keng yoritiladi. Unda daromadlar, iste’mol darajasi, kambag‘allik chegarasi, bandlik va ijtimoiy himoya kabi asosiy mezonlar tahlil qilinadi. Shuningdek, turmush darajasini aniqlashda zamonaviy statistik usullar va ularning amaliy ahamiyati ochib beriladi. Tadqiqot natijalari aholi farovonligini oshirish va ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy himoya, aholi turmush darajasi, statistik ko‘rsatkichlar, daromad, iste’mol, kambag‘allik, bandlik,, farovonlik, iqtisodiy tahlil, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish.

Bugungi kunda aholining turmush darajasini oshirish har bir davlatning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Aholi qanday yashayotgani, ularning daromadi, iste’moli va yashash sharoitlari qay darajada ekanligini aniqlash uchun statistik ko‘rsatkichlar tizimidan foydalaniladi. Ushbu ko‘rsatkichlar orqali jamiyat farovonligi va rivojlanish darajasini baholash mumkin.

“Turmush darajasi” tushunchasi va ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlar tizimini rivojlantirishda Birlashgan millatlar tashkiloti (BMT) sezilarli hissa qo‘shdi. 1960 yilda BMTning ishchi guruhi global miqyosda turmush darajasini aniqlash va o‘lchash tamoyillari haqida hisobot tayyorladi.Bu turmush darajasining keng qamrovli tizimini yaratishga birinchi urinish edi. BMT tomonidan olib borilgan tadqiqotlar bilan bir qatorda, ayrim olimlar tomonidan ham aholi turmush darajasini aniqlash va o‘lchash bo‘yicha aniq tizimlarni ishlab chiqish yuzasidan ko‘plab ishlar amalga oshirib kelindi. BMTning xalqaro statistika sohasidagi turmush darajasi ko‘rsatkichlari tizimining oxirgi versiyasi 1978 yilda ishlab chiqilgan va ushbu tizim 12 ta asosiy ko‘rsatkichlar guruhini o‘z ichiga oladi.

MDH davlatlarida uy xo‘jaliklari kuzatuvlarini o‘rganish tarixiga qaraydigan bo‘lsak**, uy xo‘jaliklari byudjeti (oila byudjeti) kuzatuvi boy tarixiy tajribaga ega. Inqilobgacha Rossiyada aholi byudjetlari statistikasi asosan dehqon xo‘jaliklari statistikasi sifatida rivojlandi. Faqatgina XX asrning boshlarida ba’zi sanoat mintaqalarda sanoat ishchilarining byudjetlari kuzatuvi o‘tkazila boshlandi.**

XX asrning boshlarida Boku shahrida neft konlari ishchilarining oilaviy byudjeti bo‘yicha o‘tkazilgan so‘rov katta qiziqish uyg‘otadi. Mazkur

Published: 05.06.2026
Cite this article: Sadullayeva Marifat Shonazar qizi (2026). Aholi turmish darajasining statistik ko‘rsatkichlari tahlili. Emro Science and Education, 2(2). https://journal.emro.uz/public/maqola/840
© 2026 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

kuzatuv so‘rov usuli va rivojlanish tafsilotlariga o‘sha paytdagi eng yaxshi mahalliy va xorijiy tadqiqotlarga mos kelgan.

Aholining turmush darajasi nima?

Aholining turmush darajasi — bu odamlarning moddiy va nomoddiy ne’matlar bilan ta’minlanganlik darajasi, ya’ni ularning qanday yashayotgani, ehtiyojlari qanchalik qondirilayotgani bilan belgilanadi.

Statistik ko‘rsatkichlar tizimi nima?

Statistik ko‘rsatkichlar tizimi — bu turmush darajasini baholash uchun ishlatiladigan o‘zaro bog‘liq ko‘rsatkichlar majmuasidir. Ular yordamida aholining hayot sifati har tomonlama o‘rganiladi.

Turmish darajasi ijtimoyi kategorlarning muhimlaridan biri bo‘lib, uning tor va keng ma’noda tushinish mumkin .Tor manodagi tushinish darajasi – bu axolini moddiy boyliklari va xizmatlarni iste’mol qilishdagi erishlgan darajasi.

Keyingi ma’noda esa jamiyatning yashash uchun yaratilgan ijtimoyi-iqtisodiy sharoyitlar majmuasini o‘z ichiga oladi.

Turmish darajasini uch xil yo‘nalishda o‘rganish mumkin:

1 Barcha aholiga nisbatan
2 Uning ijtimoyi guruhlarga nisbatan
3 Har xil daromatga ega bo‘lgan uy xo‘jaliklarini nisbatan

Aholi turmish darajasini ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimning oxirgi varyanti BMT tomonidan 1978-yilda taqtim etilgan.

1 Tug`lish, vafod etish va boshqa aholining harakterlardagi ko‘rsatkichlar
2 Turmishning sanitariya-gigiena sharoyitlari
3 Oziq-ovqat mahsulotlarni is’temol qilish
4 Turar joy sharoitlari
5 Ta’lim va sa’nat
6 Mehnat sharoyiti va bandilik
7 Aholining daromadlari va harajatlari
8 Yashash qiymati va iste’mol baholari
9 Transport vositalari
10 Dam olish tashkil etish
11 Ijtimoyi ta’minot
12 Insoning erkinligi

Hozirgi davrda aholi turmush darajasini baholashda nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy ko‘rsatkichlarga ham katta e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, ta’lim sifati, sog‘liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish imkoniyati, uy-joy sharoitlari va ijtimoiy himoya darajasi muhim omillar sifatida ko‘rilmoqda. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi ham aholi bandligi va daromad manbalarining kengayishiga xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining dermagrafik ko‘rsatkichlar raqamlarda

Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2026-yilning 1-aprel holatiga O‘zbekiston Respublikasining aholi turmush darajasining satatistik ko‘rsatkichlari statistik raqamlarda tahlil qilib o‘tsak: 2025-yil yakuni bo‘yicha aholining umumiy daromadlari — 1 134,3 trillion so‘mni tashkil qilgan, nominal o‘sish — 18,9%, real o‘sish (inflyatsiyani hisobga olganda) — 9,2%, asosiy omil: chetdan pul o‘tkazmalar

IQTISODIY STATISTIKA KAFEDRASI — Toshkent moliya iqtisodiyot universiteti —

(remittances) va ish haqi o‘sishi hisoblanadi. Aholi jon boshiga umumiy daromad (2025-yil) — 29,9 million so‘m (yiliga). Real o‘sish — taxminan 7,2% ni tashkil qilgan.

2025–2026 yillarda turmush darajasi sezilarli yaxshilangan: real daromadlar ~9% o‘sgan, kambag‘allik keskin kamaygan, tengsizlik biroz pasaygan. Asosiy omillar — iqtisodiy o‘sish va ish haqi oshgan.

O‘zbekiston iqtisodiyoti oxirgi yillarda barqaror o‘sish sur’atlarini namoyish etmoqda. Statistika agentligi (hozirgi Milli statistika qo‘mitasi) va xalqaro moliya institutlari (Jahon banki, XMF) ma’lumotlariga ko‘ra:

- **Nominal YAIM (aholi jon boshiga):** 2024-yil yakunlari va 2025-yil prognozlariga ko‘ra, bu ko‘rsatkich taxminan **2 500 – 2 700 AQSh dollari** atrofida shakllanmoqda.
- **Xarid qobiliyati pariteti (XQP) bo‘yicha:** Bu usulda hisoblanganda O‘zbekistonning aholi jon boshiga ulushi ancha yuqori — taxminan **9 500 – 10 000 dollardan** oshadi. Bu ko‘rsatkich mamlakat ichidagi narx-navo va xizmatlar arzonligini hisobga oladi.

Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan YAIM hajmi quyidagi sabablarga ko‘ra o‘zgarmoqda:

1. **Iqtisodiy o‘sish sur’ati:** O‘zbekiston YAIM yillik o‘rtacha **5.5% - 6%** atrofida o‘smoqda.
2. **Demografik omil:** O‘zbekiston aholisi yiliga o‘rtacha **2%** (taxminan 700-800 ming kishi) ga ko‘paymoqda. YAIM o‘sishi aholi o‘sishidan tezroq bo‘lgani sababli, jon boshiga ulush ham ko‘paymoqda.
3. **Sanoatlashgan iqtisodiyot:** Xizmat ko‘rsatish va sanoat sohalarining YAIMdagi ulushi ortishi jon boshiga hisoblanadigan qiymatni oshirmoqda.

O‘zbekiston hukumati o‘z oldiga ulkan maqsadlarni qo‘ygan (“O‘zbekiston — 2030” strategiyasi):

Maqsad: 2030-yilga borib aholi jon boshiga YAIM hajmini **4 000 AQSh dollariga** yetkazish va daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan mamlakatlar" qatoriga kirish.

- **Global reyting:** Hozirda O‘zbekiston “daromadi o‘rtachadan past” bo‘lgan davlatlar guruhiga kiradi, biroq islohotlar natijasida yuqori guruhga o‘tish harakati davom etmoqda.

Tahlillarga ko‘ra O‘zbekistonda aholi jon boshiga YAIM o‘sishi barqaror, ammo aholi sonining tez o‘sishi ushbu ko‘rsatkichning yanada keskin ko‘tarilishini biroz sekinlashtiradi. Shunga qaramay, nominal qiymatda so‘nggi 5 yilda sezilarli o‘sish kuzatilgan.

Xulosa sifatida ta’kidlash lozimki, aholi turmush darajasini oshirishga qaratilgan samarali ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni ishlab chiqish uchun ishonchli statistik ma’lumotlar bazasini shakllantirish, ko‘rsatkichlar tizimini takomillashtirish hamda ularni chuqur tahlil qilish zarur. Bu esa barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta’minlash va aholi farovonligini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.N.Soatov, X.Nabiev, A.Ayubjonov. Statistika. Darslik. 2019 yil. 892 bet.
2.Soatov N.M., Ayubjonov A.X. Statistika nazariyasi Darslik. 2019 yil.

3. Shodiyev X. ,Xabibullayev I. Statistika darslik. Toshkent, 2015, 336 b.
4.Abdullyev Yo. Statistika. Darslik. 2002 yil 320 bet
5. Matkarimova I.A., Xodjaniyazov Sh.Y. “Statistika va ekonometrika” (1-qism) fanidan amaliy mashg’ulotlar uchun uslubiy qo‘llanma.2023.Urganch.-112 б.
6. Matkarimova I.A.“Statistika va ekonometrika” (2-qism) fanidan amaliy mashg’ulotlar uchun uslubiy qo‘llanma.2023. Urganch.-92 б.
7. Matkarimova I.A.“Statistika” fanidan amaliy mashg’ulotlarni o‘tkazish bo‘yicha uslubiy qo‘llanma.2024.Urganch “Xorazm” nashriyoti, -96 б.

IQTISODIY
STATISTIKA KAFEDRASI
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti